
Analysis of terms from other languages in the Uzbek language

Rakhmatov Sardorkhuja
sardorrakhmatov188@gmail.com

Master's student,
Uzbekistan State World Languages University

Annotation *This scientific article provides an in-depth analysis of the historical development of terms borrowed into the Uzbek language from other languages, their formation, phonetic and morphological adaptation, semantic changes, sociolinguistic factors, and standardization processes within the framework of state language policy, as well as the influx of modern English terminology. The article examines the linguistic features of terms borrowed from Arabic, Persian-Tajik, Russian, and English, based on scientific analysis. It also presents analytical conclusions regarding the rapid transformation of terminology and the influx of new terms in the era of modern information technologies. Language is one of the most important social institutions of society and serves as the primary means of communication. The vocabulary of any language continuously expands throughout its historical development, and the Uzbek language is no exception. For centuries, the territory of Uzbekistan has been a space of interaction among various cultures, religions, political systems, and scientific centers. As a result, a significant number of mixed, borrowed, and partially borrowed terms have entered the Uzbek language. In the context of globalization, the influx of terminology has intensified even further. The development of science, technology, the internet, politics, economics, marketing, sociology, and other fields leads to the introduction of thousands of new terms into the Uzbek language each year.*

Keywords *Term, terminology, borrowing, Uzbek language, Arabic terms, Russian terms, English terms, phonetic adaptation, standardization*

O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan terminlar tahlili

Raxmatov Sardorxo'ja
sardorrakhmatov188@gmail.com

Magistratura talabasi,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ushbu ilmiy maqolada o'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan terminlarning tarixiy rivoji, ularning shakllanishi, fonetik-morfologik moslashuvi, semantik o'zgarishi, ijtimoiy-lisoniy omillar, davlat til siyosati doirasidagi me'yorlashtirish jarayonlari hamda zamonaviy inglizcha terminlarning oqimi chuqur tahlil qilinadi. Maqola arab, fors-tojik, rus va ingliz tillaridan o'zbek tiliga o'tgan terminlar misolida ularning lisoniy xususiyatlarini ilmiy asosda yoritadi. Shuningdek, hozirgi axborot texnologiyalari davrida terminologiyaning keskin o'zgarishi va yangi terminlarning oqimi bo'yicha tahliliy xulosalar beriladi. Til jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning asosiy muloqot vositasidir. Har qanday tilning lug'at boyligi o'z tarixiy taraqqiyoti davomida doimiy ravishda kengayib boradi. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. O'zbekiston hududida asrlar davomida turli madaniyatlar, dinlar, siyosiy tizimlar, ilmiy markazlararo almashinuv mavjud bo'lgan. Natijada o'zbek tiliga katta hajmda aralash, o'zlashgan va yarim o'zlashgan*

terminlar kirib kelgan. Bugungi globallashuv sharoitida terminlarning oqimi yanada kuchaydi. Ilm-fan rivoji, texnika, internet, siyosat, iqtisod, marketing, sotsiologiya kabi yo'nalishlarning kengayishi o'zbek tiliga har yili minglab yangi terminlarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Kalit so'zlar Termin, terminologiya, o'zlashma, o'zbek tili, arabcha terminlar, ruscha terminlar, inglizcha terminlar, fonetik moslashuv, me'yorlashtirish

Анализ заимствованных слов из других языков в узбекском языке

Рахматов Сардорходжа
sardorrakhmatov188@gmail.com
Студент магистратуры,
Узбекский государственный университет
мировых языков

Аннотация В данной научной статье подробно анализируются историческое развитие терминов, заимствованных в узбекский язык из других языков, их формирование, фонетико-морфологическая адаптация, семантические изменения, социолингвистические факторы, процессы нормализации в рамках государственной языковой политики, а также поток современных английских терминов. В статье на примере терминов, заимствованных из арабского, персидско-таджикского, русского и английского языков, научно освещаются их лингвистические особенности. Также приводятся аналитические выводы о стремительных изменениях терминологии и притоке новых терминов в эпоху современных информационных технологий. Язык является одним из важнейших социальных институтов общества и основным средством коммуникации. Лексический состав любого языка постоянно расширяется в процессе его исторического развития. Узбекский язык не является исключением. На территории Узбекистана на протяжении веков происходил обмен между различными культурами, религиями, политическими системами и научными центрами. В результате в узбекский язык вошло большое количество смешанных, заимствованных и частично заимствованных терминов. В условиях современной глобализации поток терминов ещё более усилился. Развитие науки, техники, интернета, политики, экономики, маркетинга, социологии и других сфер ежегодно приводит к появлению тысяч новых терминов в узбекском языке.

Ключевые слова Термин, терминология, заимствование, узбекский язык, арабские термины, русские термины, английские термины, фонетическая адаптация, нормализация

Kirish

Til jamiyatning eng muhim ijtimoiy institutlaridan biri bo'lib, uning asosiy muloqot vositasidir. Har qanday tilning lug'at boyligi o'z

tarixiy taraqqiyoti davomida doimiy ravishda kengayib boradi. O'zbek tili ham bundan mustasno emas. O'zbekiston hududida asrlar davomida turli madaniyatlar, dinlar, siyosiy

tizimlar, ilmiy markazlararo almashinuv mavjud bo'lgan. Natijada o'zbek tiliga katta hajmda aralash, o'zlashgan va yarim o'zlashgan terminlar kirib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qaroriga muvofiq, shuningdek, xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlarni samarali amalga oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorining:

1-bandiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) hamda Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy vakillari lavozimlari tashkil etilganligi;

2-bandiga muvofiq Agentlik va uning vakillari O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi Chet tillarini o'qitishning innovatsiyaviy metodikalarini rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazining 34 ta shtat birligi, Xalq ta'limi vazirligi va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimining 39 ta shtat birligi hisobidan tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5117-son qarori).

Bugungi globallashuv sharoitida terminlarning oqimi yanada kuchaydi. Ilm-fan rivoji, texnika, internet, siyosat, iqtisod, marketing, sotsiologiya kabi yo'nalishlarning kengayishi o'zbek tiliga har yili minglab yangi terminlarning kirib kelishiga sabab bo'lmoqda.

Ayniqsa inglizcha terminlarning ulushi keskin ortgan.

O'zbek tiliga boshqa tillardan kirgan terminlarni o'rganish nafaqat leksikologik, balki til siyosati, til madaniyati, tarjimashunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalar uchun ham ahamiyatlidir. Ushbu maqolada mazkur jarayon kompleks o'rganiladi.

Termin va terminologiyaning nazariy asoslari

Termin – maxsus soha, fan yoki kasb doirasida aniq tushunchani ifodalovchi so'z yoki birikmadir. Terminologiya esa shu terminlarning yig'indisi yoki ularni o'rganuvchi fan sohasidir. Terminlarning asosiy belgilariga:

- aniqlik
- bir ma'nolilik
- barqarorlik
- ixchamlik
- tizimlilik
- sohaviy qo'llanish
- xalqaro moslik

kiradi. Bu belgilar oddiy leksik birliklardan farqli ravishda terminlarning qat'iy me'yorlangan bo'lishini taqozo etadi (Kravtsova, 2015).

Terminologiya masalalari umumiy tilshunoslik doirasida chuqur o'rganilgan bo'lib, bu borada rus tilshunosi Aleksey Reformatskiy va avstriyalik olim Eugen Wüsterning ilmiy qarashlari alohida ahamiyat kasb etadi.

A.A. Reformatskiy termini til tizimining maxsus birligi sifatida baholab, uni oddiy so'zlardan farqlovchi asosiy jihat sifatida uning ilmiy tushunchani aniq ifodalash funksiyasini ko'rsatadi. Olimning ta'kidlashicha, terminlar avvalo ijtimoiy ehtiyoj asosida yuzaga keladi va keyinchalik til tizimiga moslashadi. U quyidagicha fikr bildiradi: termin – bu "maxsus soha doirasida qo'llanadigan va aniq tushunchani ifodalovchi birlik" bo'lib, ularning shakllanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Reformatskiy shuningdek terminlarning asosiy xususiyatlariga aniqlik, tizimlilik va funktsionallikni kiritadi. Uning fikricha, terminlar mustaqil emas, balki muayyan terminologik

tizim tarkibida mavjud bo'ladi va bir-biri bilan semantik jihatdan bog'langan holda ishlaydi.

E. Wüster esa zamonaviy terminologiya nazariyasining asoschilaridan biri hisoblanadi. U terminologiyani mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida shakllantirib, standartlashtirish (standardization) tamoyilini ilgari surgan. E. Wüster tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro terminologiya nazariyasiga ko'ra, terminlar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- aniqlik (precision)
- bir ma'nolilik (monosemy)
- tizimlilik (systemicity)
- standartlashuv (standardization)

Bu jihatlar terminlarni oddiy leksik birliklardan ajratib turadi (Wüster, 1979).

Wüsterning yondashuvi bugungi kunda ham terminologiyani tartibga solishda, ayniqsa ilmiy-texnik terminlarni standartlashtirish jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur olimlarning nazariy qarashlari o'zbek terminologiyasini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, terminlarning tizimli tabiati, ularning aniq va barqaror bo'lishi hamda me'yorlashtirish zarurati o'zbek tilshunosligida ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida ham terminologiya masalalari keng o'rganilgan. Xususan, N. Mahmudov terminologiyani tilning eng dinamik qatlamlaridan biri sifatida baholab, uni globallashuv jarayonlari bilan bevosita bog'laydi (Mahmudov, 2022).

Terminlarning o'zlashuvi nazariyasi

Tilga boshqa tillardan kirgan terminlar leksik o'zlashma jarayoni orqali shakllanadi. Tilshunoslikda bu jarayon ikki asosiy yo'nalishda tushuntiriladi:

- Ekzolingvistik omillar (ijtimoiy, siyosiy, madaniy sabablar)
- Intralingvistik omillar (tilning ichki qonuniyatlari)

Bu haqda rus tilshunosi A.A. Reformatskiy quyidagicha ta'kidlaydi:

"Tilga kirib kelgan har qanday termin avvalo jamiyat ehtiyojining mahsuli bo'lib,

keyinchalik til tizimiga moslashadi" (Reformatskiy, 1996).

Demak, terminlarning kirib kelishi – bu faqat lingvistik emas, balki ijtimoiy hodisa hamdir.

Terminlarni me'yorlashtirishning ilmiy asoslari

Terminlarni tartibga solish jarayoni – standartlashuv (standardization) deb yuritiladi. Bu jarayon xalqaro darajada ISO (International Organization for Standardization) tomonidan ham qo'llab-quvvatlanadi.

Terminologiyani me'yorlashtirish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- yagona shakllilik
- izchillik
- xalqaro moslik
- milliy til me'yorlariga moslashuv

O'zbek tilida ham terminlarni tartibga solish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

O'zbek terminologiyasi rivojiga hissa qo'shgan olimlar

O'zbek tilshunosligida terminologiya masalalari ko'plab olimlar tomonidan chuqur o'rganilgan. Xususan, Alisher Navoiy asarlarida ham tilning leksik boyligini rivojlantirish, so'z tanlash va ma'no aniqligi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. U o'z ijodida turkiy til imkoniyatlarini kengaytirib, terminologik tafakkurning shakllanishiga asos yaratgan. Zamonaviy o'zbek tilshunosligida terminologiya muammolari akademik G'ani Abdurahmonov tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Olim terminologiyani tilning mustaqil tizimi sifatida baholab, uning ilmiy asosda tartibga solinishi zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Nizomiddin Mahmudov o'z tadqiqotlarida globallashuv sharoitida o'zbek terminologiyasining rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilib, milliy termin yaratish masalasini dolzarb muammo sifatida ko'rsatadi. O'zbek terminologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan yana bir olim Rahmatulla Rasulov bo'lib, u terminlarning fonetik va morfologik moslashuvi, ularning milliy til tizimiga integratsiyasi masalalarini ilmiy asosda yoritadi. Bundan tashqari, Shavkat Rahmatullayev

o'zbek tilining izohli lug'atini yaratishda ishtirok etib, terminlarning izohlanishi va me'yorlashuvi jarayoniga katta hissa qo'shgan. Mazkur olimlarning ilmiy qarashlari o'zbek terminologiyasining nazariy asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ishlari terminlarni tizimlashtirish, me'yorlashtirish va milliy tilga moslashtirishda asosiy ilmiy manba hisoblanadi.

O'zbek tilining lug'at tarkibi tarixiy rivojlanish jarayonida turli tillar hisobiga boyib borgan. Tadqiqotlarga ko'ra, o'zbek tilidagi leksikaning taxminan 40–60 foizini o'zlashma so'zlar tashkil etadi. Ularning asosiy qismi arab (30–35%), fors-tojik (20–25%), rus (20–25%) va ingliz (10–15%) tillariga to'g'ri keladi. Qolgan qismi esa boshqa tillar hissasiga to'g'ri keladi. Bu holat o'zbek tilining tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivoji bilan chambarchas bog'liqdir.

O'zbek tiliga terminlarning kirib kelish tarixiy bosqichlari

Qadimgi davr: turkiy asos

O'zbek tilining ilk terminlari turkiy tilning o'zida shakllangan: *qo'shin, lashkar, yurt, bek, qozon, sanash, o'nlik, yuzlik, yulduz nomlari*.

Bu terminlar tabiiy ehtiyoj natijasida vujudga kelgan bo'lib, bugun ham faol qo'llanmoqda.

Arab tili ta'siri (VIII–XIV asrlar)

Islom sivilizatsiyasi Markaziy Osiyoga kirib kelishi bilan o'zbek tiliga arabcha terminlar misli ko'rilmagan miqdorda kirib keldi. Arabcha terminlar asosan:

diniy soha: *shariat, hadis, fiqh, imon, aqida, taqvo;*

ilm-fan: *mantiq, falsafa, kimyo, arifmetika, tarix, adabiyot;*

ma'rifat va madaniyat: *ta'lim, tarbiya, madrasa, ma'no, badiiy;*

davlat boshqaruvi: *amir, qozikalon, muftiy.*

Arab tilining o'zbek tiliga ta'siri chuqur bo'lganligi sababli bu terminlar fonetik jihatdan to'la moslashgan.

Fors-tojik ta'siri (X–XIX asrlar)

Fors-tojik tilidan kirgan terminlar ko'proq:

adabiyot: *she'r, g'azal, ruboiy, devon;*

madaniyat: *sahna, libos, chiroq, xonanda;*

davlat boshqaruvi: *vazir, podsho, saroy;*

maishiy hayot: *oshpaz, dasturxon, daftar.*

Bu terminlar o'zbek tilining she'riy, badiiy va maishiy leksikasini boyitgan.

Rus tilining ta'siri (XIX–XX asrlar)

Sovet davrida ruscha terminlarning oqimi nihoyatda kuchli bo'lgan. Ilm-fanning deyarli barcha sohalari rus tilidagi atamalar asosida shakllangan:

texnika: *motor, traktor, stanok, mashina, zavod, samolyot;*

ilm-fan: *laboratoriya, fizika, geografiya, matematika, formula;*

boshqaruv: *komitet, deputat, protokol, sovet;*

ta'lim: *fakultet, institut, seminar, leksiya.*

Ruscha terminlarning ko'pi to'liq o'zlashib ketgan.

Inglizcha terminlar oqimi (XXI asr)

Bugungi kunda asosiy donor til – **ingliz tili**. U quyidagi sohalarda ustun:

IT soha: *server, kompyuter, kod, software, hardware, login, signup, dataset;*

biznes: *marketing, startup, branding, sales, management;*

internet madaniyati: *blogger, streamer, content, influencer.*

Ko'pchilik inglizcha terminlar hozircha to'liq o'zlashmagan.

Terminlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuvi

Chet tillardan kirgan terminlarning moslashuvi tilshunoslikda adaptatsiya deb yuritiladi. Bu jarayon uch bosqichda amalga oshadi:

Fonetik adaptatsiya

Morfologik adaptatsiya

Semantik adaptatsiya

Masalan:

computer → *kompyuter* (fonetik)

blogger → *bloggerlik* (morfologik)

Tilshunos R. Rasulov bu jarayonni "milliylashtirish" deb atab, quyidagicha izohlaydi:

"Har qanday o'zlashma termin milliy tilning fonetik va grammatik tizimiga moslashgandagina faol qo'llanadi" (Rasulov, 2020).

Fonetik moslashuv

Chet terminlari o'zbek fonetik tizimiga moslashtiriladi:

computer → *kompyuter*

online → *onlayn*

monitor → *monitor* (*ruscha variant orqali*)

philosophy → *falsafa* (arabcha ko'rinish orqali)

Morfologik moslashuv

O'zbekcha qo'shimchalar bilan qo'llanishi:

blogger → *bloggerlik*

server → *serverlar*

menejer → *menejerlar*

marketing → *marketingchi*

Semantik moslashuv

Ba'zi terminlar ma'nosini o'zgartirgan:

kompyuter – dastgoh emas, **shaxsiy**

kompyuter ma'nosida;

platforma – avvaliga "poyezd maydonchasi", hozir esa "onlayn tizim".

O'zbek tilida terminlarni me'yorlashtirish

Terminlar quyidagi tashkilotlar tomonidan me'yorlashtiriladi:

O'zbekiston Fanlar akademiyasi

O'zbek tilining imlo qoida komissiyasi

O'zbek terminologiyasi bo'yicha davlat komissiyasi

Rasmiy lug'atlar

Me'yorlashtirish talablari:

Talaffuzning o'zbekcha variantini belgilash

Bitta terminda bitta shaklni tanlash

Xalqaro standartga mos bo'lishi

O'zbek tili grammatikasiga mos variant yaratish

Zamonaviy terminologiya muammolari

Inglizcha terminlarning haddan tashqari ko'pligi

Ba'zi sohalarda o'zbekcha muqobillar yaratilmayapti.

Variantlilik

Bir so'zning bir necha shaklda uchrashi:

server – *serwer* – *sarver*

platforma – *platform* – *platfroma*

Noto'g'ri tarjimalar

Internetda "live"ni "jonli efir" emas, "tirik" deb tarjima qilish holatlari mavjud.

Lug'atlar yangilanmasligi rasmiy terminologiya bazalari sekin yangilanmoqda (O'zbek tilining izohli lug'ati, 2006).

Yechimlar

Yagona elektron **O'zbek terminlar bazasini** yaratish

Har yili yangilanadigan **zamonaviy terminlar lug'atini chiqarish**

Chet terminlarga **o'zbekcha muqobil yaratish**

Universitetlarda **terminologiya fanini** kuchaytirish

Xulosa

O'zbek tiliga boshqa tillardan kirib kelgan terminlar til taraqqiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Tarixiy jarayonlar davomida arab, fors-tojik, rus va ingliz tillari o'zbek tilining lug'at tarkibiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ushbu o'zlashmalar nafaqat til boyligini kengaytirgan, balki ilm-fan, madaniyat va ijtimoiy hayot rivojiga ham xizmat qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi leksikaning muhim qismi o'zlashma terminlardan iborat bo'lib, ularning asosiy qismi arab, fors-tojik va rus tillariga, zamonaviy bosqichda esa ingliz tiliga to'g'ri keladi. Ayniqsa, globallashtirish va axborot texnologiyalari rivoji natijasida ingliz tilidan kirib kelayotgan terminlar soni keskin ortmoqda. Terminlarning o'zbek tiliga kirib kelishi fonetik, morfologik va semantik moslashuv jarayonlari orqali amalga oshadi. Bu jarayon ularning milliy til tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Shu bilan birga, terminologiyani me'yorlashtirish, yagona shaklda qo'llash va milliy muqobillar yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek terminologiyasi doimiy rivojlanishda bo'lgan tizim bo'lib, uni ilmiy asosda tartibga solish,

zamonaviy ehtiyojlarga moslashtirish va milliy til imkoniyatlari asosida boyitish til siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021, May 19). *O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida* (PQ-5117-son qaror).
2. Kravtsova, N. (2015). *Lingvistika terminologiyasi*. Moskva.
3. Lotte, D. S. (1982). *Основы научно-технической терминологии*. Moskva.
4. Mahmudov, N. (2022). *Globalashuv va o'zbek tili*. Toshkent.
5. *O'zbek tilining imlo qoidalari*. (2020). Toshkent.
6. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2006). Toshkent, O'zME.
7. O'zbekiston Respublikasi. (2019). *"Davlat tili to'g'risida"gi Qonuni*.
8. Rasulov, R. (2020). *O'zbek tilining terminologiyasi*. Toshkent.
9. Reformatskiy, A. A. (1996). *Введение в языкознание*. Moskva.
10. Wüster, E. (1979). *Introduction to the General Theory of Terminology*. Vienna.